



TARIX DARSLARIDA ATAMALAR BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI VA USULLARI

Kabulova Sapargul – o‘qituvchi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri 20-sonli maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarida tarixiy atamalarni ishlashning ahamiyati va ular bilan ishlash usullari ko‘rib chiqilgan va ularning afzalliklari haqida xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy atamalar. Tarix darslari. Tarixiy sana metodi. Tarixiy voqea. Taqqoslash. Ikki qismli kundalik metodi

Tarix fanini o‘qitish jarayonida atamalar (terminlar) bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. Chunki tarixiy voqelikni anglash, jarayonlar o‘rtasida bog‘lanishlar o‘rnatish va davr xususiyatlarini tushunish ko‘p jihatdan o‘quvchining atamalarni to‘g‘ri bilishi va ulardan ongli ravishda foydalana olishiga bog‘liq. Shu bois tarix darslarida atamalarni o‘rganishga qaratilgan samarali usullardan foydalanish o‘quv jarayonini yanada mazmunli va qiziqarli qiladi [1].

Tarixiy atamalar bilan ishlash quyidagi vazifalarni bajaradi:

birinchidan, o‘quvchilarning tarixiy tasavvur va tushunchalarini shakllantiradi;

ikkinchidan, yangi bilimlarni qabul qilish uchun tayanch asos yaratadi;

uchinchidan, manbalarni o‘qish va tahlil qilishni osonlashtiradi;

to‘rtinchidan, muhim tarixiy kategoriya va voqealarni tizimlashtirishga yordam beradi;

beshinchidan, ilmiy nutq madaniyatini rivojlantiradi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar uchun asosiy qurol va bilim manbai bu darslik hisoblanadi. Lekin, ushbu darsliklarda berilgan ma’lumotlarni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirmoqda, o‘quvchilarni qanday qilib samarali o‘qitish mumkin, berilgan ma’lumotlari qaysi usullar bilan etkazib bergan maqul yoki tarix darslarida



atamalar bilan ishlashda qanday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi degan savollar har bir o'qituvchini o'ylantirishi tabiiy hol.

Tarix darslarida biz hohlaymiz mi, yo'q mi tarixiy sanalar bilan ishlashimiz zarur. Shunki, har bir mavzuda kamida 5-6 ta tarixiy sanalar va tarixiy voqealar o'rganiladi. Ushbu sanalarni eslab qolish, ularda bo'lib o'tgan tarixiy voqealarning kelib chiqishini bilish o'quvchilarda qiyinchilik to'g'diradi. Yana bir jihati metodlarni bir xil uslubda foydalanish o'quvchilarni zeriktirishi mumkin.

Shunday ekan, biz ushbu maqolamizda tarix darslarida tarixiy sanalar va voqealar bilan ishlashda yaxshi natija beradigan metodni yangicha yondoshuv asosida ko'rib o'tamiz.

«Tarixiy sana» metodi tarixiy sana va voqealar bilan ishlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Metodning ahamiyati shundan iboratki, o'quv fani bo'yicha yangi mavzu yoki bo'limdagi ma'lumotlarni o'quvchi tomonidan eslab qolish, mustaqil xulosa berish, shu orqali o'z bilimlarini baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchiga qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan [2].

«Tarixiy sana» metodidan darslarimizda o'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuning mustahkamlash bosqichlarida o'quvchilarning bilimini aniqlash hamda mustahkamlash maqsadida qo'llash mumkin. Ijodiy yondoshgan holda metodni bir nechta usullarda foydalanishimizga bo'ladi. Birinchi usulda namunada keltirilganday qilib, o'quvchilarga topshiriq sifatida mavzuda o'rganilgan tarixiy sanalar beriladi. Bunda o'quvchi berilgan jadval asosida tarixiy voqealarni yozishi kerak.

Namunalar [3]:

Tarixiy sanalar	Tarixiy voqealar
486 yil	
496 yil	
732 yil	

Bunda o'quvchilar yakka tartibda daftarlariga berilgan atamalar mazmunini darslikdan foydalanmagan holda yozishlari talab qilinadi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning esda saqlab qolish qobiliyati ko'proq rivojlanadi.

Metodni qo'llashning ikkinchi usulida o'quvchiga tarixiy voqealar taqdim etiladi va o'quvchilarga tarixiy sanani yozish topshiriq sifatida beriladi.

Tarixiy sanalar	Tarixiy voqealar
	Merovinglar sulolasiga asos solinishi
	Xlodvig tomonidan xristian dinining qabul qilinishi
	Puate jangi

Uchinchi usulda o'quvchilarga tarixiy sanalar va ularda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar jadvalga bir-biriga noto'g'ri tartibda joylashtiriladi va o'quvchilar ma'lumotlarni tahlil qilgan holda berilgan sanalarni voqealar bilan moslashtiradi.

№	Tarixiy sanalar		Tarixiy voqealar
1	486 yil	A	Xlodvig tomonidan xristian dinining qabul qilinishi
2	496 yil	V	Puate jangi
3	732 yil	S	Merovinglar sulolasiga asos solinishi

Javoblari: 1-s, 2-a, 3-v

Tarixiy sana metodidan o'qituvchilar ortiqcha resurs sarf qilmasdan sinf taxtasi yordamida foydalanish imkoniyati mavjud. Ushbu metodni samarali foydalanish orqali o'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirishga yordam beradi.

Tarixiy atamalar bilan ishlashda "Ikki qismli kundalik" metodidan ham foydalansak bo'ladi [4]. Bu metoddan o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni mustahkamlash, o'quvchilarga uyga vazifa sifatida berishda ham foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish uchun o'quvchilarga jadval yordamida topshiriq beriladi. Jadvalning birinchi ustuniga mavzu davomida o'rganilgan tarixiy nomlar yoziladi. Jadvalning ikkinchi "Berilgan ta'rif" degan ustuniga o'quvchilar mavzu bo'yicha o'rganilgan atamalarga darslikdan foydalangan holda berilgan ilmiy



ta'rifni, uchinchi "o'quvchining ta'rifi" degan ustunga o'zining tarixiy atama mazmunini qay darajada tushunganligini, ya'ni fikrini yozishi talab etiladi.

№	Atamalar	Berilgan ta'rif	o'quvchining ta'rifi
1	Paleolit		
2	Mezolit		

Bu metodlarni tarix darslarida qo'llashning afzalligi, o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini, eslab qolish qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi, rivojlantiradi, o'z-o'zini baholashga o'rgatadi va fikrlash doirasini kengaytiradi, o'quvchilar tarixiy atamalarining nomini eslab qoladi, mazmunini tushunadi, o'qituvchidan ortiqcha resurs talab etilmaydi, sinf doskasi bilan ishlash imkoniyatini beradi, qisqa vaqt ichida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholashga ham yordam beradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Tarix darslarida atamalar bilan samarali ishlash - o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, tarixiy voqealarni anglash va ularni ongli ravishda tahlil qilishda muhim omil hisoblanadi. Atamalarni bosqichma-bosqich, turli metod va usullar yordamida o'rganish ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchining tarixiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, atamalarni mustaqil o'rganish ko'nikmasi o'quvchining umumiy ma'rifiy saviyasini oshiruvchi muhim qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshpo'latov T, .G'afforov Ya, Tarix o'qitish metodikasi. T-2010
2. Хохлова Д.А. Педагогика. «Наука, инновация технологии» №2, 2013
3. Salimov T. Nasrullaev L va boshqalar. Jahon tarixi. Umumta'lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik. T-2022
4. Ишмухамедов Р, Юлдашев М. «Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар», Т. Ниҳол, 2016